

**RESPUBLIKAMIZDAGI TUYALAR OILASINING
PARVARISHLASHDAGI DOLZARB MASALALAR VA ULARNI BOSH
SONINI TAHLILI (NAVOIY VILOYATI MISOLIDA)**

Xalilova Lobar Umarovna,

Navoiy davlat Universiteti 1- bosqich doktoranti

E-mail: muhammadabdimuminov7@gmail.com, Tel: (94) 482 29 39

Saparov Kalandar Abdullayevich, *Nizomiy nomidagi*

TDPU Tabiiy fanlar fakulteti dekani, b.f.d., professor.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Navoiy viloyatida tarqalgan tuyalar oilasi vakillarini boqishda vujudga keladigan muammolar, ularning bosh soni, tuyalarning tabobat va sanoatdagi ahamiyati, chora-tadbirlarga bag'ishlangan.haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *dromedar, baktrian, parazitoz, populyatsiya, epizootologik, molekulyar-genetik, tuyaxona, askorbin kislotasi, regeneratsiya, metabolik jarayon, teri tonusi, tuyaqorin, keyreuk, boyalish, jusan.*

Аннотация: *Статья посвящена решению проблем воспроизводства верблюдоводческих хозяйств, распространённых в данном регионе, численности рабочих, значению верблюдов в медицине и промышленности, а также принимаемым мерам.*

Ключевые слова: *дромадер, бактриан, паразитоз, популяция, эпизоотологический, молекулярно-генетический, верблюдоводство, аскорбиновая кислота, регенерация, обменные процессы, окраска кожи, туякорин, кейреук, крашение, полынь.*

Abstract: *The article is devoted to solving problems in the reproduction of camel family enterprises distributed in this region, the number of workers, the importance of camels in medicine and industry, and measures.*

Key words: *dromedary, bactrian, parasitosis, population, epizootological, molecular-genetic, camel farming, ascorbic acid, regeneration, metabolic process, skin color, tuyakorin, keyreuk, dyeing, wormwood*

Kirish. Respublikamizdagi tuyalar oilasining parvarishlashdagi dolzarb masalalar va ularni bosh sonini tahlili muhim dolzarb masala hisoblanadi. Respublikamiz hududi ayniqsa Navoiy viloyati hududi tuyalar boqilishi uchun juda mos bo'lib, cho'l yaylovlarning keng maydonlari ularni erkin va uzoq masofalarga o'tlashiga sabab bo'ladi. Mamlakatimiz geografik tuzilishi jihatidan ham tuya boqish uchun mos tushadi. Ikkinchi navbatda tuyachilik tarmog'I chorvachilikning eng kamxarj turi hisoblanadi. Tuya organizmi esa kasalliklarga nisbatan juda chidamli ekanligi ham alohida e'tirofga loyiq jihatlardandir. Bu aytilgan barcha xususiyatlar tuyachilikning mamlakatimiz uchun eng samarali tarmoqlardan biri ekanligining isbotidir. Tuyalar bosh sonining boshqa hayvonlarga nisbatan sezilarli darajada kamligi hamda qishloq xo'jaligi va sanoatda keng ko'lamda foydalanilishini inobatga olib ularning kasalliklariga qarshi doimiy ravishda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishni taqozo etadi. [1].

Adabiyotlar tahlili Osiyo mamlakatlarida ham tuyachilik keng rivojlangan bo'lib, shu boisdan ushbu hududlarda ham tuyalar parazitofaunasiga oid keng qamrovli tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan: Alireza Sazmand va Anja Joachim (2017) tomonidan chop etilgan maqolada Eronda tuyalarning parazitlar kasalliklari bo'yicha 1931-2017 yillar davomida olib borilgan tadqiqot ishlarining tahlili (adabiyotlar sharhi) keltirilgan. Anvari-Tafti va b. (2013) Eron markazidagi tuyalarining (*Camelus dromedarius*) oshqozon-ichak gelmintlarini o'rgangan. Tadqiqotlar Eronning Yazd, Esfaxon va Kirmon viloyatlaridagi qushxonalarda so'yilgan jami 144 bosh bir o'rkachli tuyalarning oshqozon-ichak yo'llari gelmintologik usullar yordamida tekshirilgan. Magan Muhomed va b. (2017) Sharqiy Efiopiyaning Somali mintaqaviy davlatining ayrim tumanlarida tuyalar oshqozon-ichak gelmintlarini o'rganganlar. Jami 238 bosh tuyalarning tezak namunalari tekshirilgan bo'lib shundan 188 boshida parazitlar tuxumlari aniqlangan.

Süleyman Aypak (2007) Turkiyadagi mavjud tuyalarning ekto va endo parazitlarini o'rganish, tadqiqot olib borilgan hududda (Turkiyada) tuyalar asosan sayyohlik sohasida foydalanilishi, shu boisdan ularning parazitlar kasalliklari va ularga qarshi kurash choralarini so'ngi yillardagina olib borilayotganligi keltirilgan. Zhang Guowu va boshqalar (2020) Xitoydagi Tyanshan tog'lari yaylov hududida tarqalgan tuyalarning oshqozon-ichak parazitlarini o'rganish. Yi Zhang va boshqalar (2024) Xitoyning Shinjon hududida tarqalgan tuyalarning ovqat hazm qilish traktida gelmintlarning tarqalishi va ular bilan bog'liq xavf omillarini o'rganish. Tadqiqotchilarning ma'lumotlariga ko'ra bugungi kunda Shinjonda 250 ming bosh tuya parvarish qilinadi. Toaleb va boshqalar (2024) tomonidan "Tuyalarning parazitlar gelmintlari va bo'g'im oyoqlilar infeksiyasi: diagnostika va nazorat" nomli maqolasida tualarda parazitlarning uch toifasi (protozoalar, gelmintlar va bo'g'imoyoqlilar) deyarli barcha mamlakatlarda parvarishlanayotgan tualarda uchrashligi qayd etilgan.

Tadqiqod metodologiyasi Qaysi usullar bilan parvarishlanadi va bosh soni nazorat qilinadi qaysi usullar yordamida nechta tuya o'rganilgan shu xaqida qisqacha bayon qilinish kerak

Tahlil va natijalar. Mamlakatimizda tualarni parvarishlash, ularni bosh sonini chuqur nazorat bilan oshirish hamda ulardagi invazion va yuqumli kasalliklarini o'rganish bo'yicha tadqiqot ishlari kompleks ravishda olib borilmagan. Shu boisdan tuya parazitlarining tur tarkibini aniqlash, parazitlarning epizootologik holatini baholash muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, parazitlar kasalliklar tualar populyatsiya soniga va ularning mahsuldorlik ko'rsatkichlariga sezilarli darajada ta'sir qilishi masalaning dolzarb ekanligidan dalolat beradi. Ushbu masalani tahlil qilishdan avval, respublika hududidagi tualarning tarqalish miqdori haqidagi so'nggi ma'lumot quyidagi jadvalda yoritilgan.

1-jadval.

Respublikamiz hududida mavjud chorva mollari bosh soni to'g'risida 2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra ma'lumot

№	Viloyatlar nomi	Tumanlar soni	Ma'lumot olingan MFY va QFYlar soni	Tuyalar soni
1	Qoraqalpog'iston	17	424	4859
2	Andijon	16	909	35
3	Buxoro	13	544	2836
4	Jizzax	14	302	1061
5	Qashqadaryo	16	819	1621
6	Navoiy	11	330	10921
7	Namangan	12	791	132
8	Samarqand	16	1126	245
9	Surxondaryo	15	724	53
10	Sirdaryo	11	238	92
11	Toshkent	22	1022	272
12	Farg'ona	19	1062	265
13	Xorazm	13	531	222
14	Toshkent shahri	12	584	0
Jami:		207	9406	22614

Ushbu ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan bo'lib mamlakatimizda chorvachilik tarmoqlarini rivojlantirish orqali chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish, oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlash, chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini zamonaviy ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalangan holda rivojlantirish borasida davlat rahbarining qator farmon va qarorlari qabul qilinib sohani rivojlanishiga alohida

e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Veterinariya va chorvachilik sohasidagi davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 28-martdagi PF-5696-son Farmonida "...veterinariya sohasi va barcha tarmoqlarini rivojlantirish, epizootik barqarorlik va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash hamda kasallikka chidamli hayvon turlarini yaratish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish" kabi vazifalar begilangan.

Ushbu izlanishlarimiz O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son, 2019-yil 28-martdagi "Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5696-son Farmonlari, 2019-yil 7-noyabrdagi "Qoraqalpog'iston Respublikasida chorvachilik tarmoqlarini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4512-son va 2022-yil 31 martdagi "Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-187-son qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Navoiy viloyati hududida tuyalar tarqalish darajasi respublika miqyosida birinchi o'rinda (44,3%) turadi. Bu esa respublika aholisining tuya mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojining asosiy qismini ushbu hududdagi tuyachilik fermer xo'jaliklari tomonidan qoplanishini anglatadi. Tuyalar boqiladigan hududlar asosan Uchquduq, Tomdi, Konimex tumanlari va Zarafshon cho'llaridir. Ushbu hududlarda tuya boqish uchun ajratilgan jami yer maydoni 31855,5 gektarni tashkil etadi. Shundan 14100 ga Uchquduq tumani ulushiga, 12123,5ga Tomdi tumani hududiga, 5632ga maydon Konimex tumani hududiga to'g'ri keladi. Viloyat hududida jami 29 dan ortiq tuyaxonalar mavjud bo'lib, ularning sig'imi umumiy 2680 bosh tuyani yetishtirishga yetadi. Bu tuyaxonalarning 3tasi Konimex tumanida, 16 tasi Tomdi tumanida, 10tasi Uchquduq tumanida joylashgan. Respublikamizda tuyalardan asosan sut, go'sht va jun sanoati uchun foydalaniladi. Keyingi yillarda ularni tibbiyot sohasida ham o'z o'rnini borligi isbotlanib kelmoqda. Ularning suti, juni va go'shtidan turli kasalliklarga davo

sifatida va hatto kosmetologiyada ham foydalaniladi. Tuya sutining foydasi uning tarkibidagi noyob moddalar mavjudligida yotadi. Ushbu mahsulot tarkibida temir mikroelementi mavjud, u qon tarkibini yaxshilaydi va hujayralardagi metabolik jarayonlarda ishtirok etadi. Bundan tashqari, o'zida qizil qon tanachalari hosil bo'lish jarayonini faollashtiradigan aminokislotalar saqlaydi, shuning uchun tuya suti kamqonlikdan aziyat chekadiganlarga ayniqsa tavsiya etiladi. Fosfor va kalsiyning ta'siri tufayli suyaklarda regeneratsiya faollashadi va ularning mustahkamligi ortadi. Ko'p miqdorda askorbin kislotasi mavjudligi immunitetni mustahkamlash va organizmning himoya funksiyalarini yaxshilashga ko'maklashadi. Bundan tashqari, tuya suti ko'plab teri kasalliklarini davolashda yordam beradi. U namlantiruvchi, oziqlantiruvchi va yoshartiruvchi xususiyatlarga ega. Tuya suti ajinlar paydo bo'lishini oldini oladi, teri tonusini tiklaydi.

Tuyalarning sog'lomligi, ular boqilayotgan hududlarning sanitar holati, yemishlarining mo'lligi, ular ustida izlanishlar olib borish, xo'jaliklar sharoitlarini yaxshilash ularning mahsuldorligini oshishiga va yaxshi foyda olishga sabab bo'ladi. Navoiy viloyati cho'l hududlaridagi tuyachilik fermer xo'jaliklari o'rganilganda, aholi yashash manzillarining kengayishi, cho'l hududlaridan o'tadigan transport yo'llari, tuyalarning tarqalishiga va ozuqa topishiga salbiy ta'sir etayotgani ma'lum bo'ldi. Tuyalar boqilayotgan hududga yaqin joylarda zavodlarning ishlab turganligi u yerdagi tuyaqorin, keyreuk, boyalish, jusan va shu kabi cho'l o'simliklarining bo'yiga, hosildorligiga va miqdoriga tubdan ta'sir o'tkazmoqda.



1-rasm Navoiy viloyati Zarafshon hududidagi Daustan ovuliga yaqin cho'l zonasidagi sanoat zavodi . (Tuyalar boqiladigan asosiy maydonlar)

Bu esa ular bilan oziqlanadigan cho'l hayvonlarini ozuqadan to'ymasligiga va oziq izlab turar joyidan uzoq hududlarga ketishiga, bu esa ularning chanqashiga, horg'inligiga, mahsuldorlikning pasayishiga olib kelishi aniqlandi. Transport vositalari tuyalarni urib yuborayotganligi va bu fermer xo'jaligiga va ulardan kutilayotgan mahsuldorlikka bevosita ta'sir o'tkazyapti. Chunki tuya boshqa chorvachilik hayvonlari turlaridan vazn va kattalik jihatidan yetarlicha miqdorda farq qiladi. Tuyalarda uchraydigan parazitlar ham ularning tana vazni pasayishiga, holsizlanishiga, ishtaha pasayishiga, organlar faoliyatini izdan chiqarishiga va bu belgilar to'g'ridan to'g'ri mahsuldorlikka, xususan, ulardan olinadigan go'sht, sut va jun miqdorining keskin kamayishiga olib kelmoqda.



2-rasm **Manba:**Tomdi tumanidagi fermer xo'jaliklarda boqilayotgan tuyalar.

Xulosa. Tuyachilikni rivojlantirish - chorvachilikning asosiy foyda keltiradigan tarmog'ini qo'llab quvvatlash, soha muammolarini bartaraf etish har qachongidan dolzarb vazifaga aylanmoqda. Tuyachilikda uchrab turgan mavjud muammolarga qarshi chora ishlab chiqish va ular boqilayotgan yerlardagi sanoat korxonalarini zararini nazoratga olish va yetarli ozuqa bilan ta'minlanishini kuzatib borish soha rivoji oldidagi muhim vazifalardandir. Agar ularda uchraydigan parazitlarni yo'qotish uchun o'z vaqtida yetarlicha tadbirlar o'tkazilmasa, ilmiy

o'rganilmasa, ularning parazitlarida chidamlilik xususiyati yildan yilga ortib boraveradi. Natijada parazitlardan qutilishda qiyinchiliklar kelib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1 [O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi.info@stat.uz](mailto:info@stat.uz)

2. <https://www.fao.org>

2. <https://shifo.uz/article/tuya-suti-foydali-xususiyatlari>

3. Navoiy viloyati veteranariya boshqarmasi taqdim etgan ma'lumotlar asosida olingan tuyachilik xo'jaliklari haqida xatlov .

4. Lex.uz rasmiy sayti chorvachilik haqidagi qonun va qarorlar.

5. Dadaev S., Azimov D.A., Saparov K. O'zbekistonda tuyalar parabronemozining epizootologiyasi va profilaktikasi // TINBO axborotnomasi. – Toshkent: nashriyot-matbaa ijodiy uyi. “Istiqlol”, 2005. No 1. bet. 59-61

6. Dadaev S., Saparov K. O'zbekistonda qishloq xo'jaligi hayvonlarida gelmintlarning epidemiologik ahamiyati // “TINBO” axborotnomasi. – Toshkent: nashriyot-matbaa ijodiy uyi. “Istiqlol”, 2005. No 1. bet. 62-63.

7. Saparov K., Dadaev S. O'zbekistonda tuyalarning gelmintlarining bioxilmaxilligi va ularning hosil bo'lish qonuniyatlari haqida // Fan yutuqlari va qishloq xo'jaligini rivojlantirish istiqbollari: Ilmiy-Amaliy Anzhuman Materiallari Respublikasi. – Samarqand, 2005. B. 163-165.